

## O'QUVCHILARNI MILLIY-MA'NAVIY TARBIYALASHDA UMUMIY PEDAGOGIKANING AHAMIYATI

*Mubdi'ma G'ulomjonova – FarDU talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarni milliy-ma'naviy tarbiyalashda umumiyligi pedagogikaning tutgan o'rni va ahamiyati yoritiladi. Milliy qadriyatlar, urfodatlar va an'analarni yosh avlod qalbiga singdirishda pedagogik tamoyillar asosida olib boriladigan tarbiya jarayonining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, umumiyligi pedagogikaning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi, zamonaviy yondashuvlar va tarbiyaviy metodlar orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish yo'llari ko'rsatib beriladi, pedagogik jarayonni samarali tashkil etishning milliy-ma'naviy tarbiyadagi o'rni asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Milliy tarbiya, ma'naviyat, axloqiy fazilatlar, umumiyligi pedagogika, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, o'quvchilarni tarbiyalash, pedagogik jarayon, mehnat tarbiyasi, vatanparvarlik.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiyaning o'rni beqiyos. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va uning xulq-atvorini bosqichma-bosqich malakaga aylantirish va asosiy kompetensiyalarni shakllantirish zarur. Bugungi kunda ta'limning zamonaviy modeli jamiyatda erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishga olib kelmoqda. U real maqsad va irodaga ega insonlarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Ta'lim va kadrlar tayyorlash zamon talablari asosida muttasil rivojlanib, yangilanib bormoqda. Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda kompyuterlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab etilmoqda. Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'laqonli xabardor bo'lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo'yadi.

Ma'naviyat-inson ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida "ma'ni" so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning ichki va tashqi olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'y-basti, ko'rinishi, kiyinishi va hatti-harakatlari kiradi. Ichki olamiga esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istiklalari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shunday ichki olami ma'naviyatdir. Ma'naviyat va axloq bir-biri bilan bog'liq bo'lib bir-birini to'ldiradi. Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotidangina emas,

balki ma’naviy yuksalishini ham taqozo etadi. Har qanday mafkura kabi O‘zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasingin asosiy g‘oyalaridan biri ham jamiyatda ma’naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi. Bugungi kun ta’lim tizimining maqsadi o‘zgarishlar, yangilanishlar sharoitida mustaqil holda o‘ziga to‘g‘ri yo‘l topa oladigan, barcha imkoniyatlarning yuzaga chiqara oladigan erkin ijodkor shaxsni-barkamol yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim tizimida ham yangilanishlar zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bugungi kun talabiga javob bera oladigan zamonaviy darslarning asosiy shartlari uning qiziqarli o‘tilishi, o‘quvchilarni zerikmaslidir. Bilim oluvchini mustaqil o‘qibo‘rganishiga undaydigan bunday darslarda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. O‘yinlar orqali o‘quvchining faolligi ortadi, ijodiy imkoniyatlari ro‘yobga chiqadi. Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari; aqliy harakatli va aralash o‘yinlaridan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, psixologik,estetik, badiiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘yinlar o‘quvchilarni ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga,ijodkorlikka undaydi. Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish , hisoblash, o‘lchash, yasash,kuzatish, xulosa chiqarish, solishtirish, mustaqil qaror qabul qilish, nutq o‘stirish, til o‘rganish va yangi bilimlar olish faoliyatini rivojlantiradi. Didaktik o‘yinlar turlarini tanlashda o‘qituvchi quyidagi mezonlarga rioya qilishi zarur: - ishtiokchilarning tarkibi bo‘yicha (o‘gil bolalar, qizlar yoki aralash); - O‘quvchilarning soni bo‘yicha (yakka, guruhli,juftlik, kichik guruh va hk); - O‘yin jarayoni bo‘yicha (fikrlash, o‘ylash, topag`onlik,harakatlar,musobaqa, berlashuv) - Vaqt meyori bo‘yicha (dars davomida, ma’lum vaqt oralig`ida, g`olib aniqlanguncha va hk). O‘yinlarni qo‘llashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga uning shartini tushuntirishi va imkon qadar birgalikda bajarishi lozim. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi o‘yin shartini obdon o‘rganishi, uni o‘quvchilarga taqdim etish usullarini oldindan bilishi kerak. Qaysi darsda, qaysi mavzuda qanday o‘yindan foydalanishiga etibor berish shart.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo‘llanilganda mustaqil ishslash ko‘nikma va malakasi rivojlanadi. Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba- sinovidan o‘tib, yaxshi natija bergen. Eng asosiyalaridan biri bu kichik guruhlarda ishslash. Ta’lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlaydi, o‘quv topshiriqlari alohida bir o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a’zolariga beriladi. Guruhlarning har bir a’zosi topshiriqni bajarishga o‘z hissasini qo‘sishga harakat qiladi. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o‘z munosabatlarini bildirishga intilishlarini

tarbiyalab, ularni fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Interfaol darslarda o‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadiga yo‘naltiradi. Bu usullarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga hos hususiyatlarga ega bo‘lib, o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmasligi, mustaqil fikrlashi, ijod va izlanishga jalg etilishi, ta’lim jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlari doimiylagi ta’milanishi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatining doimiy ravishda tashkil etishini ta’minlaydi.

Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarning yaxshi o‘qishlarini, darslarga ishtiyoq bilan yondashishlarini istaydi. O‘quvchi darsga qiziqmasa, o‘qituvchining shijoatini so‘ndiradi. Bu, albatta, pedagogik jarayonda bir qator muammolarni vijudga keltiradi. Zero, V. Suxomlinskiy aytganidek, ”Agarda o‘quvchida o‘qishga qiziqish bo‘lmasa, barcha izlanishlarimiz- u o‘ylagan niyatimiz puchga chiqadi”. O‘quvchi darslarga befarq bo‘lib, unga qiziqmasa va extiyoj sezmasa, samarali o‘qitishga erishish mushkul. Shu sababli o‘qituvchi oldida o‘quvchini o‘quv jaroyoniga qiziqtirish vazifasi turadi. Bolalarni darslarga qiziqtirishda boshlang`ich sinfdayoq jiddiy muammolarga duch kelinadi. Chunki bolalar ko‘p chalg`ishadi, shovqin- suron qilishadi, o‘qituvchini tinglashmaydi, sinfdagi mashg`ulotlar va uy vazifalarini bajarishga qunt qilishmaydi. O‘quvchi ulg‘aygan sari ba’zan ularning fe’l-atvorida o‘qishga qiziqmaslik bilan bog‘liq sabablar ham ko‘payib boradi. O‘quv faoliyatini jonlantirishga intilishning an’anaviy usuli bu – yomon baholar bilan ”siylash” hisoblanadi. O‘quvchi yomon baxodan ta’sirlanadi, ammo bu xam har doim ijobiy samara bermaydi. Bolada o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish uzoq muddat davom etadi, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va o‘ta mashaqqatli mehnat talab qiladi. Mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

\*yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

\* o‘quvchilarda umumjamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;

\* ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

\* o‘quvchilarning mavjud bilimlarini uzlucksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

\* ularda mehnat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;

\* o‘quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga

ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, hayotiy faoliyat yo‘nalishini belgilash malakalarini shakllantirish.

Mazkur vazifalar tizimida o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarning aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o‘zaro bog‘lik holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:

-aqliy tarbiya o‘quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat - nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o‘z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o‘quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi. -mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o‘quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi. -mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o‘quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go‘zallik va o‘z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, o ‘quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Bular:

- > o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;
- > ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- > ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg‘otish;
- > o‘quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;
- > ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash;
- > ularning mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlariga erishish;
- > mehnatda ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- > o‘quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘ularini shakllantirish;
- > mehnatda do‘slik, o‘rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- > o‘quvchilarning mehnatni go‘zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Uzluksiz ta’lim sharoitida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o‘zini namoyon qila oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Davlat ta’lim standartlari zamонави та’лим модели асосида qayta ko‘rib chiqildi. Takomillashtirilgan davlat ta’lim standartlari o‘quvchilarning tayanch va fan yo‘nalishlari bo‘yicha umumi kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Ma’naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir. Ma’naviyat (arabcha «ma’naviyat» - ma’nolar majmui) mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy

taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui hisoblanadi. Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi. Ma'rifat shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi. Har uchala sohaning uzviy birligi asosida jamiyat ma'naviyati yuksaladi. Ma'naviyat sohasida ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz - milliy qadriyatlarmizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarda boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi - iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebafo merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat». Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi. «Axloq» (lotincha - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalari majmuidir. Axloq - ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi. Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyat, axloq inson ongingin shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunga ega bo'lish nazarda tutiladi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali

e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo'llanilib, o'quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo'lgandagina shakllangan deyish mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyuştiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzlucksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;
- o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarni tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning o'z nuqati nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;
- shaxsda o'z idealiga intilishiga bo'lgan his-tuyg'ularini uyg'otishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko'nikmalarni tarbiyalash;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;
- tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar - insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;
- fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko'p ma'naviy-axloqiy sifatlar - boshqlarga g'amxo'rlik qilish, odamlarning g'amtashvishi, quvonchini tushuna olish, o'z manfaatidan o'zgalar manfaatlarini ustun qo'yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to'xtataolish, ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o'rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak. Darsning turli bosqichlarida qiziqtirishning har xil usul va yo'llarini qo'llash o'quvchilarning o'qishga bo'lgan intilishini mustahkamlaydi. Bu o'rinda ko'p narsa pedagogning mahorati, uning o'quv- tarbiya ishini tashkil eta olish qobiliyati, ijodi va doimiy izlanishiga bog'liq. Qaysidir ma'noda standart darsdan yiroqlashish, o'quvchilar e'tiborini tortish, ular faoliyatini jonlantirish, ularni fikrlash, izlanish va harakat

qilishga undash uchun yangi dars o‘tish jarayonlari kerak bo‘ladi. O‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xil metodlardan foydalaniladi: Birinchidan, mактабдаги о‘qish jarayoni yuksak darajada uyishtirilishi kerak. Buyuk nemis pedagogi A.V. Disterveg ta’kidlaganidek, yaxshi o‘qitish bilangina o‘qituvchi o‘quvchini yaxshi tarbiyalay oladi. Ikkinchidan, axloqiy tarbiya jarayonining muvofaqqiyati o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasining saviyasiga bog`liq. Jamoa axloqli bo‘lsa, bolalar intizomli bo‘ladi. Uchinchidan, tarbiyaviy ishlarni rejali bo‘lishi va hamjihatlik bilan amalga oshirilishi axloqiy tarbiyaning muvafaqqiyatini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni milliy-ma’naviy tarbiyalash — ularni nafaqat bilimli va malakali, balki yurtga sadoqatli, axloqiy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs etib shakllantirishda asosiy omildir. Umumiy pedagogika fanining nazariy va amaliy tamoyillari ushbu jarayonning poydevori hisoblanadi. Ma’naviyat, axloq, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni yoshlarga singdirish orqali ular ichki dunyosi boy, o‘zligini anglagan, mustaqil fikrlaydigan shaxslar sifatida kamol topadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar va mehnat tarbiyasini uyg‘unlashtirgan holda olib borilgan ta’lim-tarbiya jarayoni o‘quvchilarda mustahkam ijtimoiy-axloqiy qarashlar, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularining shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, pedagoglar oldida turgan asosiy vazifa – o‘quvchilarni barkamol, ma’naviy boy, komil inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 180 b.
2. Xasanboyeva G’.N. Pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015. – 368 b.
- 3.Xolboeva N.X. Tarbiyaning nazariy asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 240 b.
- 4.Qodirov A., Qodirova M. Umumiy pedagogika asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 312 b.
- 5.Disterveg A. O‘qituvchilar uchun rahbar. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 198 b.
- 6.Toshkenboyeva D. va boshqalar. O‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021. – 146 b.
7. Internet saytlari